



## **Rivojlanishni uzoq muddatli strategiyasi**

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018

Strategiyaning asosiy yo'nalishlari bilan quyidagilar belgilab berilgan:

- Tashkiliy tuzilishini, qaror qabul qilish tizimi va korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish;
- Ichki nazorat tizimini takomillashtirish;
- Samarali xodimlarni boshqarish tizimini yaratish;
- Mijozlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish va joriy qilish;
- Chakana va korporativ biznesni rivojlantirish;
- Samarali axborot siyosatini va brend strategiyasini ishlab chiqish;
- Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish;
- Daromadlilik va rentabellik darajasini oshirish

Shuni qayd etish lozimki, strategiya bilan belgilangan asosiy vazifalarni hal etishda, bank o'zining bank-moliya xizmatlari bozorida asosiy ustuvorligidan — eng keng qamrovli bo'linmalari tarmog'idan to'laqonli foydalanadi. Kelgusi besh yil davomida bo'linmalarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator choralarning majmuini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Xususan, ularning faoliyati tahlil qilinadi, va uning natijalari bo'yicha rentabelli bo'linmalarni takomillashtirish hamda norentabelli bo'linmalarni yopish qarorlari qabul qilinadi.

Davlat iqtisodiyotining real sohasini kreditlashga oid, shu jumladan korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarida ishtirok etishga alohida e'tibor beriladi

---